II bosqich Venchur investitsiyalar[1] dasturi (VCIP)

Mamlakat:
Hududiy

Loyiha raqami:
50118

Faoliyat sohasi:
Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari

Xabarnoma turi:
Xususiy

Ekologik toifasi:
FW

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:
2018-yil, 23-may

Qaysi bosqichda ekanligi:
O‘rganilmoqda

Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) ingliz tilida e’lon qilingan sana:
2018-yil, 24-aprel

Loyiha mazmuni

YTTB o‘zining II bosqich venchur investitsiyalar dasturi (YTTBning avvalgi VCIP dasturining davomi hisoblanuvchi VCIP II va uning 100 mln yevro mablag‘ga ega bo‘lgan ixtisoslashgan hadli kredit liniyasi) doirasida asosiy kapital va asosiy kapitalga bog‘liq bo‘lgan vositalar yordamida Bank o‘zi faoliyat ko‘rsatayotga mamlakatlardagi rivojlanishning ilk bosqichida bo‘lgan texnologik kompaniyalarga, venchur investitsiyalar sohasida tajribali bo‘lgan sheriklar bilan birga (hajmi 15 mln yevrogacha bo‘lgan) investitsiya kiritishni maqsad qiladi. Mazkur investitsiyalar bozordagi asosiy venchur kapitalga bo‘lgan “bo‘shliq”ni to‘ldirishga yordam berish maqsadida, asosan,

[1] Venchur investitsiyalar – o‘zining yangi turdaligi sabab yuqori riskliligi bilan ajralib turadigan loyihalarga qilinadigan investitsiyalar. Bu turdagi investitsiyalarni an’anaviy tashqi moliyalashtirish mablag‘lari yordamida moliyalashtirib bo‘lmaydi. Bunday turdagi investitsiyalar, asosan, yangi yoki qayta tashkil qilingan tashkilotlarga, jumladan, yuqori salohiyatga ega bo‘lgan kichik korxonalarga, shu bilan birga, risk darajasi yuqori bo‘lgan aksiyalarga kiritiladi.

muayyan venchur kapital jamiyatlari tomonidan yetarlicha xizmat koʻrsatilmaydigan innovatsion hamda kichik va oʻrta biznes korxonalariga moʻljallangan.

Loyiha maqsadi

i) VCIP mazkur hududda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, txnologik ekotizimni yaratish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash imkonini beradi; ii) VCIP orqali Bank mazkur hududda mavjud boʻlgan venchur kapitalni moliyalashtirishdagi “boʻshliq”ni toʻldirishda muhim rol oʻynaydi; iii) VCIP Bankga yuqoriroq riskli/yuqoriroq foydadorlikka ega boʻlgan investitsion imkoniyatlarga portfel nuqtai nazaridan qoʻllab-quvvatlash imkonini beradi.

Oʻtish davri ta’siri

VCIP II moliyalashtirish mexanizmi oʻtish davrining raqobatbardosh va barqaror sifatlariga oʻz hissasini qoʻsha oladi, chunki u yangi tashkil qilingan yuqori innovatsion texnologiyaga asoslangan korxonalarni rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlaydi va hamon YTTB hududida joylashgan venchur kapitaldan foydalanish imkoniyatini yaxshilashga koʻmaklashadi. VCIP II moliyalashtirish mexanizmi birinchi VCIP I moliyalashtirish mexanizmining muvaffaqiyatiga tayanadi va YTTB hududida YTTBning Innovatsion iqtisodiyot tashabbusi, xususan, uning Kichik texnologiyalarga asoslangan kompaniyalar deb nomlanuvchi 3-boʻgʻiniga muvofiq ravishda, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun eng muhim yordamni ta’minlaydi.

Mijoz haqida ma’lumot

Individual yondashuv asosida.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablagʻ

100,000,000.00 yevro

Loyihaning umumiy qiymati

100,000,000.00 yevro

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Mazkur loyiha B toifasiga kiritildi, chunki kompaniyaning faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan ekologik va ijtimoiy xavflar muayyan obyekt uchun alohida hisoblanadi va ular xavfni kamaytirishning standart chora-tadbirlari orqali oson hal qilinadi.
Ushbu loyiha boʻyicha ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD3) mustaqil maslahatchilar tomonidan oʻtkazilgan boʻlib, ular “ABN-MB” MCHJ xodimlari bilan uchrashganlar hamda Oʻzbekistonning Toshkent shahridagi kompaniyaning ishlab chiqarish obyektiga tashrif buyurganlar.
ESDD e’tirof etishicha, umuman, mavjud obyektlar va koʻzda tutilayotgan loyiha ekologiya, xavfsizlik hamda mehnatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan xavfi kam deb topildi.
Kompaniyaning ishlab chiqarish obyekti Bektemir tumani maxsus sanoat hududida joylashgan

bo‘lib, bu obyektning ushbu hududda mavjud barcha ekologik va ijtimoiy subyektlar uchun xavfi past hisoblanadi. Barcha ruxsatnomalar olingan.

Mazkur mexanizm Bankning 2014 yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosati asosida tasniflanmasa-da, uning har bir sub-loyihasi individual yondashuv asosida va loyiha hamda mijozning turidan kelib chiqqan holda, alohida tarzda ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD[2]) va yashil iqtisodiyotga o‘tish (GET[3]) sinovi bo‘ycha tasniflanadi. Sub-loyiha toifasiga ko‘ra, tegishli ESDD har bir loyihaning Bank loyiha talablariga muvofiq tarzda tuzilganligini tekshiradi.

Texnik ko‘mak

Ko‘zda tutilmagan.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma’lumot

Bahrom Ibragimov
02073386000

Biznes hamkorlik

Biznes hamkorligi yoki ta’minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

Davlat sektoriga oid loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o‘ting. Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy so‘rovlar

Xarid masalalaridan tashqari YTTB loyihalariga tegishli ma’lumotlar uchun:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Axborot siyosati

Axborot siyosati YTTBning strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma’lumotlarni ommaga qanday taqdim etilishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi. Davlat sektori ma’muriyatining hisobotini qanday so‘rash bo‘yicha quyidagi axborot siyosati sahifasiga o‘ting.

Axborot siyosati matni

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi

[2] Environmental and Social Due Diligence
[3] Green Economy Transition

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi (PCM[4]) YTTBning hisobdorlik mexanizmidir. Mazkur vosita jismoniy shaxslar va tashkilotlarning YTTB moliyalashtirgan loyihalarning biror atrof muhitga oid yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo‘yicha da’volarni yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan holatlarga oid shikoyatlarni xolisona ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish tartibi haqida ma’lumot olish uchun Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi sahifasiga o‘ting. Shikoyat qilish, PCM tartibining qoidalariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tish va mos kelish mezonlariga oid har qanday savollar bo‘yicha shikoyatlar bilan ishlashga mas’ul mutaxassisga (pcm@ebrd.com) murojaat qilishingiz mumkin.

[4] Project Complaint Mechanism